

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2021 Vol. 4

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 4

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosarlari: Zaynobbiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyoung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Kasimbay Mamurov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Tolib Enazarov

Dialektal matnlarning leksik tahlili metodi.....6

Jo'ra Xudoyberdiyev

Birinchi turkologiya qurultoyining chaqirilishi va maqsadi haqida.....19

Manzura Abjalova

Lingvistik ontologiya – leksik ma'lumotlar bazasi.....39

Dilafruz Muhammadiyeva

“Boburnoma”ning turkiy tillardagi tarjimalarida
paremiyalarning aks etishi.....60

Zoxira Xidraliyeva

O'zbek tilining Iqon shevasi vokalizmini areal o'rganishga doir.....74

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Shahnoza Rahmonova

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida g'azal janri poetikasi.....90

Gulnoza Jo'rayeva

Bolalar hajviy she'riyati – ma'rifiy va estetik tarbiya quroli
sifatida.....103

Din. Falsafa. Ilohiyot

Bahriddin Umurzoqov

“Rashahot” asarida Xojagon tariqati asoslari bayoni.....118

CONTENT

Linguistics

Tolib Enazarov

Method of lexical analysis of dialectal texts.....6

Jura Khudoyberdiyev

About aims and Organization of the first Turkological Conference.....19

Manzura Abjalova

Linguistic Ontology - Lexical Database.....39

Dilafroz Muhammadieva

Reflection of paremies in the translations of “Boburnoma”
in turkish languages.....60

Zakhira Khidralieva

On the study of the Ikan dialectvocalism of the Uzbek language.....74

Literature. Translation studies

Shahnoza Rahmonova

Poetics of the ghazal genre in uzbek poetry of the second
half of the XX century.....90

Gulnoza Jurayeva

Children's comic poetry as a mean of educational and
aesthetic education.....103

Religion. Philosophy. Theology

Bahriddin Umurzoqov

Detailed analysis of the foundations of the Khojagon tariqat
in the work “Rashakhot”.....118

Birinchi turkologiya qurultoyining chaqirilishi va maqsadi haqida

Jo'ra Xudoyberdiyev¹

Abstrakt

1926-yilda Bokuda Birinchi turkologiya qurultoyi bo'lib, unda turkiy xalqlar tarixi, tili va adabiyoti masalalari muhokama qilingan. Qurultoyda ko'rilgan masalalar hozirgacha turlicha nuqtayi nazardan tahlil qilib kelinmoqda. Sobiq ittifoq hududidagi matbuot nashrlari qurultoy turkiy xalqlar ijtimoiy-siyosiy hayotida ulkan voqea bo'lganligini uzluksiz ravishda targ'ib etdi. Xorijlik mutaxassislar tadqiqotlarida ushbu tadbir turkiy xalqlar tili, tarixini bolshevistik mafkura asosida shakllantirishga qaratilgan muhim bir bosqich ekanligi qayd qilindi. XX asrning o'ttizinchi va undan keyingi yillarida shu maqsaddagi harakatlar izchillik bilan olib borilganligi ko'plab xorijiy adabiyotlarda aks etdi. Bunday qarama-qarshi fikrlarga sabab bo'lgan o'sha davr manbalarini qayta ko'rib chiqish, ularni xorijdagi tadqiqotlar bilan qiyoslab o'rganish turkshunos olimlar, mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Qurultoy materiallarini tahlil qilishdan oldin anjumanni chaqirish to'g'risidagi fikr qachon va nima maqsadda paydo bo'lganligini aniqlash-tirish kerak. Chunki o'zbek tilshunoslari tadqiqotlarida bu haqda deyarli ma'lumot yo'q. Xorijdagi va rus tilshunosligidagi ishlarda esa bir-biriga mos kelmaydigan qarashlar mavjud.

Lotin alifbosi asosidagi turkiy yozuvlar taraqqiyotini o'rgangan Bilal N.Shimshir Rossiya turkshunoslarida qurultoyini chaqirish fikri 1923-1924-yillarda paydo bo'ldi va 1925-yildan tayyorgarlik ishlari qizg'in boshlandi, deb yozadi. F.D.Ashnin qurultoy chaqirishni A.N.Samoylovich 1922-yilda ilgari surgan deb hisoblaydi. A.N.Samoylovichning Peterburgdan moskvalik turkshunos olim V.A.Gordlevskiyga yozgan xatlari esa anjumanni o'tkazish fikri 1913-yilda paydo bo'lganligini ko'rsatmoqda.

O'sha davrda nashr etilgan manbalar tahlili turkologiya qurultoyini chaqirishdan asosiy maqsad Rossiya tarkibidagi xalqlar alifbolarini

¹ Xudoyberdiyev Jo'ra Ochilovich – katta o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: jxudayberdi@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5362-0356

Iqtibos uchun: Xudoyberdiyev, J.O. "Birinchi turkologiya qurultoyining chaqirilishi va maqsadi haqida". 2021. *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 18—38.

rus yozuviga o'tkazish ekanligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: *Birinchi turkologiya qurultoyi, arab alifbosi, lotin alifbosi, Rossiya turkologlari, Sharqshunoslik assotsiatsiyasi, A.N.Samoylovich, E.D.Polivanov, V.A.Gordlevskiy, N.Yakovlev, L.Jirkov, M.P.Pavlovich.*

Kirish

1926-yilda Bokuda Birinchi turkologiya qurultoyi bo'lib o'tdi. Turkiy xalqlar tarixi, tili va adabiyoti masalalari muhokama qilingan ushbu qurultoy materiallari [Первый Всесоюзный тюркологический съезд 1926] turlicha nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Sobiq ittifoq hududidagi matbuot nashrlari qurultoy turkiy xalqlar ijtimoiy-siyosiy hayotida ulkan voqea bo'lganligini uzluksiz ravishda targ'ib etdi [Bogdanova 1930; Raximov 1926; Usmon 1926; Yusupov 1979; Кононов 1968; Мысаев 1965; В.С. 1926]. Xorijlik mutaxassislar tadqiqotlarida ushbu tadbir turkiy xalqlarni bolshevistik mafkura asosida shakllantirishga qaratilgan muhim bir bosqich ekanligi qayd qilindi [Toynbee 1929; Castagne 1926; Castagne 1927]. Yigirmanchi asrning o'ttizinchi va undan keyingi yillarida shu maqsaddagi harakatlar izchillik bilan olib borilganligi ko'plab xorijiy adabiyotlarda aks etdi [Toynbee 1929; Paul 1956; Paul 1957; Şimşir 1991; Şimşir 1992]. Bunday qarama-qarshi fikrlarga sabab bo'lgan o'sha davr manbalarini qayta ko'rib chiqish, ularni xorijdagi tadqiqotlar bilan qiyoslab o'rganish turkshunos olimlar, mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Qurultoy materiallarini tahlil qilishdan oldin anjumanni chaqirish to'g'risidagi fikr qachon va nima maqsadda paydo bo'lganligiga aniqlik kiritish kerak. Chunki o'zbek tilshunoslari tadqiqotlarida bu haqda deyarli ma'lumot yo'q. Xorij va rus tilshunosligidagi ishlarda esa bir-biriga mos kelmaydigan qarashlar mavjud.

A.N.Samoylovichning V.A.Gordlevskiyga yozgan xatlari

Lotinalifbosi asosidagi turkiy yozuvlar taraqqiyotini o'rgangan Bilal N. Shimshir Rossiyada turkologiya qurultoyini chaqirish fikri 1923-1924-yillarda paydo bo'ldi va uni o'tkazishga 1925-yildan tayyorgarlik ishlari qizg'in boshlandi, deb yozadi [Şimşir 1992, 117-119]. F.D.Ashnin qurultoy chaqirishni A.N.Samoylovich 1922-yilda ilgari surgan deb hioblaydi [Ашнин 1976, 24-25].

Albatta bu fikrlarda ma'lum darajada haqiqat bor. Biroq A.N.Samoylovichning Peterburgdan moskvalik turkshunos olim V.A.Gordlevskiyga yozgan xatlari esa anjumanni o'tkazish fikri ancha oldinroq tug'ilganini ko'rsatmoqda. Uning 1913-yil 29-av-

gustda yozgan xatida shunday jumlar bor: "В середине сентября жду в гости J.Deny из Парижа, который приготовил недурную османскую грамматику. Было очень приятно убедиться, что и среди османистов начинают появляться туркологии. Вам бы тоже было хорошо прикатить в Питер, устроили бы репетицию конгресса тюркологов, о конгрессе я мечтаю... идея которого встречает сочувствие на Западе" [Баскаков 1973, 88].

Fransuz turkshunosi J.Deni Peterburgga kelganidan keyin A.N.Samoylovichning turkologiya syezdini o'tkazish to'g'risidagi fikri bir qadar o'zgargan. U V.A.Gordlevskiyga yozgan keyingi xatida [1913-yil 7-oktyabr] syezd xususidagi fikri hozirchalik yarim hazil ekanligini alohida ta'kidlaydi: "Моя мысль о съезде тюркологов, можно сказать, пока полу-шутка" [Баскаков 1973, 88].

A.N.Samoylovichning Rossiyadagi turkshunoslarni birlashtirish, ular olib boradigan tadqiqot yo'nalishlarini muvofiqlashtirish xususidagi harakatlari 1915-yilda boshqa bir shaklda davom etgan. 12-sentabrda taniqli turkshunos olim V.V.Radlovning xonadonida Oltoyshunoslar to'garagi tuzilgan. Bu haqda A.N.Samoylovich V.A.Gordlevskiyga shunday xabar beradi: "Давнишняя моя идея объединить русских тюркологов начинает, по-видимому, осуществляться по моей инициативе 12 сентября основан на квартире Радлова частный кружок «алтаистов» (турецко-монгольско-манджурский); его задачи: объединение научной работы, установление планомерности, подведение итогов, выработка программ, коллективная разработка вопросов, превышающих единенные силы. Были: Радлов, Котвич, Руднев, Штернберг, Владимирцов и я" [Баскаков 1973, 88]. To'garakning uchinchi yig'inidan V.V.Bartold ham ishtirok etgan. V.V.Radlov vafotidan keyin (1918) to'garak Radlov to'garagi deb nomlangan va uni Bartold boshqargan. 1930-yilga qadar faoliyat ko'rsatgan [Кононов 1968, 6] ushbu to'garakning yig'inlarida ko'proq turkiy tillarga oid masalalar muhokama qilingan [Самойлович 1924a, 105].

Turkiy xalqlar ziyolilari o'rtasida alifbo to'g'risidagi bahslar

XX asr boshlarida, ayniqsa, 20-yillarda turkiy adabiy tillarini jonli tillarga yaqinlashtirish, bu jarayonda qardosh tillardagi mushtaraklikni saqlash, arab alifbosiga asoslangan yozuvni isloh qilish yoki uni boshqa alifbo bilan almashtirish singari masalalar ustida qizg'in bahslar bo'layotgan edi. Tataristonda [Курбатов 1972], Qozog'istonda [Кенисбаев, Мусабаев, Неталиева 1972] arab alif-

bosi isloh qilinib, maktab va matbaa ishlariga joriy qilindi. Bu davrda O'zbekistonda ham shunday harakatlar boshlandi. Fitrat tuzgan "Chig'atoy gurungi" jamiyati 1919-yilda alifboni isloh qilish lozimligini kun tartibiga qo'ydi [Xudoyberdiyev 1996, 88-90; "Chig'atoy gurungi"ning imlo to'dasi 1919; "Chig'atoy gurungi"ning imlo to'dasi, 1919a; Yusupov 1979, 19]. Shundan keyin turli munozaralar bo'ldi, qator anjumanlar o'tkazildi [Maorif va madaniyat xodimlarining ikkinchi o'lka qurultoyi 1922; Til va imlo qurultoyi. 1921; Yusupov 1979; Hudayberdiyev 1998; 1997]. 1923-yilda arab alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi isloh qilinib, amalda qo'llana boshladi [Maorif va madaniyat xodimlarining ikkinchi o'lka qurultoyi 1922]. Natijada Tatariston, O'zbekiston va Qozog'iston ziyolilarining ko'pchiligi isloh qilingan alifbo tarafdori bo'lib, chiqdilar [Xudoyberdiyev 1996; Кырбатов 1972].

Ozarbayjonda esa 1922-yildan lotin yozuviga o'tish harakati kuchaydi. 1923-yilda lotin alifbosi davlat yozuvi deb belgilandi ["Бакинский рабочий" 1923]. Lotin alifbosini targ'ib qilish maqsadida lotin yozuvida "Jeni yol" nomli gazeta chiqarildi. Gazetaning birinchi sonida 33 harf va bir tutuq belgisidan iborat "Yangi turk alifbosi" e'lon qilindi, ozarbayjon tilini milliyashtirish bo'yicha qator maqolalar berildi. Undagi "El talaffuzi" nomli maqolada bir so'z Bokuda, Nahichevanda, Tiflisda, Karsda boshqa-boshqa talaffuz qilinadi. Bu turk tili imlolarini yetarlicha ishlanmaganligidan dalolat beradi, deyiladi-da, tilchilar, yozuvchilar oldiga shunday vazifa qo'yiladi: "tilchilarimiz va yozuvchilarimiz bu masalaga ahamiyat berib, ... tilimizning qonunlarini o'rganishga, tozalashga va bu qonunlarni bir grammatika shakliga keltirishga kirishsinlar; yo'qsa tilimiz va talaffuzlarimiz ko'rganimiz holda qolsa, yana ham juda buzilib, yana ham ko'p o'zgarib, mahv bo'lishi shubhasizdir" [Jeni yol 1922].

"Go'zal boshlang'ich" nomli maqolada Bokuda atamashunoslik komiteti ish boshlagani, uning millat taraqqiyotidagi o'rni xususida shunday yoziladi: "Ikki oy bo'ldiki, Bokuda istiloh komiteti tashkil qilinib, ilmiy istilohlarni turklashtirish yo'lida havas bilan ish boshladi. Bu ish millatimiz kelajagi uchun naqadar buyuk va ahamiyatli bo'lgani qanchalar oydindirki... bunga bir dalil keltirishning ehtiyoji yo'q. Qaysi millat bo'lsa bo'lsin, uning o'ziga xos ilm tili bo'lmasa, u millatning tilsiz bir odam shaklida qolishi har doim ma'lum bir masaladir. Oxirgi vaqtlarda millatlarning madaniyat darajasini bilishni istaganlar ularning ilm tiliga boqarlar. Chunki millatning madaniy yuksalishi ilm tilining sodda, ravon va milliylashgan bo'lishi bilan bilinadir" [Jeni yol 1922]. Gazetaning keyingi sonlarida

ham shu ruhdagi maqolalar berib borilgan [Jenijol 1922a; 1922b].

Turkiy xalqlar madaniy hayotida kechayotgan bunday o'zgarishlar o'z mafkuraviy tamoyillarini shakllantirayotgan yangi hokimiyatning til siyosatiga mos emasdi. Chunki Tatariston, O'zbekiston, Qozog'iston islohchilari bilan Ozarbayjon lotinchilari orasida yozuv to'g'risidagi qarashlar ikki xil bo'lsa-da, tilning keyingi taraqqiyoti borasidagi fikrlarda mushtaraklik mavjud edi. Munozaralarda tilning milliy xususiyatlariga e'tibor berib, omma uchun tushunarsiz o'zlashma [arabcha, forsha, ruscha] so'zlar o'rniga turkiy so'zlarni olish yoki ularning tushunarli, o'zlashib ketgan qismini turkiy tillar tovush xususiyatlariga moslashtirish, qardosh tillar o'rtasidagi tarixiy birlikni saqlashga katta ahamiyat berilmoqda edi.

Turkiy tillar uchun rus alifbosini joriy etish haqidagi qarashlar

Turkiy tillar uchun rus alifbosini joriy etish haqidagi qarashlar chor Rossiyasi davriga borib taqaladi. XX asrning 20-yillarida til siyosatini amalga oshirish bo'icha yetakchi olimlar turkiy alifbolar to'g'risidagi bahslarda bir necha marta rus yozuvining afzalliklari xususida fikr bildirdilar. Masalaning bu shaklda, ya'ni mavhumroq tarzda qo'yilishiga sabab, chor Rossiyasi davrida oltoy [Суразакова, Тыбыкова, Чумакаева 1982], yoqut [Петров 1972, 203-204], chuvash [Петров 1982, 92-96], cherkes, kabardin, abxaz, qorachoy-bolqor [Хабичев 1982, 97-106], shor [Донидзе 1972, 202], hakas [Чанков 1972, 183-188] singari kam sonli aholini xristianlashtirish maqsadida rus alifbosi joriy qilingan edi. N.I.Ilminskiy va uning maslakdoshlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bunday harakatni yanada kuchaytirishdi [Xudoyberdiyev 1998: 88-90; Баттал Габделбари 1996: 97-99; Кәримүлин Әбрар 1997: 296-302; 1997a, 83-94]. 1907-yilda Rossiyadagi turkiy xalqlarni rus yozuviga o'tkazish to'g'risidagi hokimiyatning maxsus farmoni chiqdi [Вәлиев 1996, 34]. Rossiyadagi g'ayrius millatlar tillarining qo'llanish doirasini cheklash siyosat darajasiga ko'tarildi. Ushbu masala Rossiya Davlat Dumasining bir necha yig'inlarida qizg'in muhokama qilingan bo'lsa-da, mahalliy tillar mavqeyini ko'tarish borasida hech qanday amaliy ish qilinmadi. Bolsheviklar hokimiyati hukmronligining dastlabki yillaridanoq chor Rossiyasi davridagi til siyosati davom ettirildi. Shu boisdan turkiy xalqlarga to'g'ridan to'g'ri rus alifbosiga o'tishni tavsiya qilib bo'lmasdi. Rus yozuvining afzalliklari to'g'risidagi o'rtaga tashlangan fikrlar esa turkiy xalqlar va ularning ziyolilari munosabatini bilish maqsadida ehtiyotkorlik

bilan tutilgan siyosat edi. Bu ham o'z davridayoq keskin qarshilikka uchradi. Shundan keyingina ozarbayjonlik ziyolilar tomonidan ilgari surilayotgan lotin yozuviga o'tish xususidagi takliflar davlat miqyosida qo'llab-quvatlandi. Joylardagi munozaralarda faol qatnashish, tashviqot-targ'ibot ishlarini lotin alifbosi foydasiga hal etish, alifbo loyihalarini tayyorlash jarayonida qardosh tillarni bir-biridan ajratishga harakat qilish uchun o'z davrining yetakchi olimlari jalb etildi. Bular orasida G.Broydo, M.P.Pavlovich-Veltman singari siyosatdonlar, A.N.Samoylovich, E.D.Polivanov, L.Jirkov, N.Yakovlev, I.Borozdin kabi olimlar bor edi [To'g'on 1997, 159-161; 1999, 361-363].

Ayrim olimlar esa turkiy tillar uchun rus alifbosini joriy etish fikrida qat'iy turishdi. XX asr boshlarida turkiy alifbolarni isloh etish masalasi qizg'in munozaraga aylangan bir davrda, Ozarbayjonda lotin yozuviga o'tish kun tartibiga qo'yildi. Shaxtaxtinskiy, Efandiyev, Saidov, Taqizodalarning lotin alifbosi asosidagi loyihalari yaratildi. 1922-yil oktyabr oyida milliy ishlar bo'yicha xalq komissarlar kengashiga xulosa berish uchun Shaxtaxtinskiyning lotin alifbosi asosidagi loyihasi yuboriladi. Gismatullin, Aliyev, Boykov, Gordlevskiy, Musayevlardan iborat tuzilgan maxsus komissiya Moskva sharqshunoslik institutida muhokama qilinadi. Institut rektori Gismatullin 1922-yil 27-sentabrda imzolagan taqrizda loyihaga ehtiyohtkorlik bilan baho beriladi: "Работа тов. Шахтахтинского является оригинальной и имеет значение в культурно-общественном отношении и представляет продуманную работу" [Базиянц 1976, 76].

Ushbu loyiha 1923-yilning 17-fevralida Gismatullin rahbarligida o'sha komissiya tomonidan qayta muhokama qilinadi. Yig'ilish bayonida qarashlar har xil bo'lganligi qayd etiladi va Vladimir Aleksandrovich Gordlevskiyning quyidagi fikri keltiriladi: "Проф Гордлевский реформу татарского правописания считает половинчатой и предпочитает перейти к русскому шрифту, так как все народы Востока будут приобщаться к общеевропейской культуре через посредство русского языка" [Базиянц 1976, 76].

G.Broydo. Sharq xalqlari milliy masalalari bilan shug'ullangan G.Broydo [Broydo 1925] Turkistonda sovet hokimiyatini o'rnatishda faol qatnashgan. Turkbyuroning a'zosi, keyinchalik I.Stalinning yordamchisi lavozimlarida ishlagan [To'g'on 1997, 159-161; 1999, 361-363].

Sharq xalqlari vakillaridan bolshevistik rahbar kadrlarni tayyorlovchi Sharq xalqlari universiteti [Stalin 1925, 10-25] rah-

barlaridan bo'lgan. Mazkur universitet olimlari ham turkiy xalqlarga alohida-alohida lotin alifbosini joriy qilish prinsiplarini ishlab chiqishda faol qatnashgan [To'g'on 1997, 196-197; 1999, 394-395].

M.P.Pavlovich. Shu jarayonlarni to'la nazorat qilib turgan M.P.Pavlovich Sharq davlatlari bo'yicha yetakchi siyosatdonlardan biri hisoblangan. U 1920-yilda Bokuda bo'lgan Sharq xalqlari kongressi [Рыскулов 1927], Moskvadagi Sharqshunoslik instituti [Ходоров 1927, LVII-LXVI], Peterburgdagi Jonli Sharq tillari institutining [Ходоров 1927, LXV], asosiy tashkilotchilaridan biri bo'lgan. M.P.Pavlovichning Sharq xalqlari va ularning tillariga bo'lgan munosabatini quyidagi dalilda yaqqol ko'rish mumkin. U 20-yillarning boshida Yaqin Sharq va O'rta Osiyoda ish olib boradiganlarga arab, eron, afg'on va turkiy xalqlar orasida ziddiyatni keltirib chiqarish, ularni parchalab tashlash, milliy ziyolilarni yo'q qilish to'g'risida ko'rsatma tayyorlab bergan. Unda, jumladan, "bu millatlarning tili, yozuvi tamoman shakllanmaganligidan foydalanib, ular orasida qudratli adabiy tilning xalq tiliga yaqinlashuvidan foydalanib, bu xalqlarning tilini parchalab yuborish imkoniyati va buning ahamiyati haqida" ham alohida tavsiya bor edi [To'g'on 1997, 87; 1999, 288].

Ana shu M.P.Pavlovich-Veltman 1922-yilda Moskvada tashkil qilingan Sharqshunoslik assotsiatsiyasining rahbari etib tayinlandi [Бороздин. 1927, XXXVIII; Ольденбург 1927, XXV; Рыскулов 1927, XII; Ходоров 1927, LXV] va Sharq mamlakatlari bo'yicha olib boriladigan siyosatning yetakchisiga aylanadi. Assotsiatsiyaning rasmiy nashri bo'lgan "Новый Восток" (1922-1929) jurnalidagi maqolalar mundarijasi o'sha davrda juda keng ko'lamdagi ishlar olib borilganidan dalolat beradi. Jurnal materiallariga qaraganda, Assotsiatsiya turkiy tillar bo'yicha olib boriladigan har qanday tadbirlarni muvofiqlashtiruvchi va shu soha bilan shug'ullanadigan tashkilotlarga tavsiya beradigan asosiy markaz hisoblangan. 1923-yildan turkiy xalqlarni boshqa yozuvga o'tkazish, so'ngra turkiy tillar uchun yangi adabiy tillar shakllantirish tamoyillari ham shu tashkilotda ishlab chiqilgan. Mazkur masalalarni hal qilish uchun turkologiya qurultoyini o'tkazish ham Assotsiatsiya yig'inlarida muhokama qilib borilgan [C.B. 1924, 48].

1924-yildan sharqshunoslik bilan shug'ullanadigan tashkilotlarga sobiq ittifoqdagi Sharq xalqlari yozuvlarini yevropo alifbosi asosida tubdan o'zgartirish to'g'risida ko'rsatma berilgan: "народности без письменные или неустановившейся письменностью, которые в первую очередь, будут обслуживать проектируемое Отделение Союзного Востока Института

Востоковедения, охватывают: а) на северном Кавказе в круглых цифрах до 2 милл. Человек яфетидов с 4-мя главными языковыми группами черкесо-абхазской (500 тыс.чел.), чеченской (500 тыс.чел.), дагестанской (650 тыс.чел.) и осетинской (250 тыс.чел.); б) восточно финские языки до 2 ¼ милл.чел., гл.обр., Востока ЕВР. России и Западной Сибири с языками: мордовской (около 1 милл. чел.), мари (черемисский ок. 450 тыс. чел.), коми (зырянский ок. 300 тыс. чел.) вотский с пермяцким (ок. 500 тыс. чел.), вогульский и остяцкий в Сибири и др.; в) многие тюркские народности с молодой или возникающей письменностью числом до 7,5 милл. чел., в восточной ЕВР. Россию Сибири и Туркестане, в том числе: языки киргизский (ок. 2 милл. чел.), тюркские яз. Туркестана (узбекский и др., ок. 2 ½ милл. чел.), башкирский (ок. 1 ½ милл. чел.), чувашский (ок. 1 милл. чел.), тюркские языки Алтая (“ойроты” и др. ок. 200 тыс. чел.), якутский (ок. 250 тыс. чел.), наконец, кавказский горцы-тюрки (ок. 100 тыс. чел.); г) языки с установившимся религиозным письмом, требующим при современном подходе к вопросам культурного развития масс коренной реформы письменности на основе европейского алфавита, таковы-монголы, всего 0,5 милл. чел. – в том числе языки калмыцкий (до 200 тыс. чел.) и бурятский (около 300 тыс. человек) и все остальные тюрки” [Яковлев 1924, 495].

Ushbu matndagi “yevropo alifbosi asosida tubdan o'zgartirish” fikri aslida “rus alifbosi asosida tubdan o'zgartirish” degan ma'noni anglatadi. Bunga L.Jirkov va N.Yakovlevlarning 1925-yilda “Новый Восток” jurnalida e'lon qilgan maqolalarida ilgari surilgan qarashlar dalil bo'la oladi [Жирков 1925, 223-235; Яковлев 1924а, 236-242].

L.Jirkov. L.Jirkov lotin, rus va arab alifbolarining ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilib, lotin alifbosining kamchiliklari haqida shunday yozadi: “при наличии указанных достоинств у латинского алфавита есть и много недостатков. Основной недостаток – чрезвычайная малочисленность знака” [Жирков 1925, 227]. Shu sababli bunga yangi harflar qo'shish zarurati tug'iladi, deydi. Rus yozuvining imkoniyati va kamchiliklari to'g'risida esa shunday mulohazalarni bayon qiladi: “Русский алфавит имеет и такие достоинства, которые не присущи латинскому. Главное – в нем больше знаков. Если на его основа создавать алфавит какого –нибудь другого языка, то мы будем иметь больше шансов на то что знаков хватит; во всяком случае, нам придется больше приспособлять готовое, чем изобретать новое... Какие же техниче-

кой точки зрения недостатки у нашего алфавита. Их немного, но они, конечно есть” [Жирков 1925, 230]. Ushbu matnda rus yozuviga o'tishga da'vat qilish yaqqol sezilib turibdi. Biroq, mahalliy xalqlar yuqorida qayd qilinganidek, o'sha davrda rus yozuvini qabul qilmasliklari aniq edi. Shu boisdan L.Jirkov lotincha-ruscha harflar yordamida alifbo tuzishni tavsiya qiladi: “Если мы возьмем 26 латинских букв и присоединим к ним все те русские буквы, которые имеют форму отличную от латинских – таковых 18 – мы получим огромный алфавит в 44 буквы. Этого количества знаков безусловно хватит для записи любого языка” [Жирков 1925, 235]. N.Yakovlev maqolasida ham N.Jirkov fikrlariga hamohanglik sezilib turadi [Яковлев 1924а, 236-242].

Y.D.Polivanov. Y.D.Polivanov ham shu jarayonda faol qatnashib turkiy xalqlarni lotin yozuviga o'tkazishning nazariy va amaliy tomonlari haqida yigirmadan ortiq asar yaratgan [Леонтьев, Ройзензон, Хаятин 1968, 14-20]. 1922-yildan o'zbek yozuvini lotin alifbosi bilan almashtirish tarafdori bo'lgan [O'zbek imlosining islohi to'g'risida propeso'r Polivanip doqladining asosi, 1922]. O'zbek tili uchun birinchi lotin alifbosi loyihasini tuzgan [Поливанов 1924]. Turkiy yozuvlar masalasini hal qilish uchun turkologiya syezdi yoki konferensiyasi chaqirish zarurligini 1923-yilda kun tartibiga qo'yganlardan biri [Поливанов 1923]. Y.D.Polivanovning turkiy yozuvlar, xususan, o'zbek alifbosi va imlosiga aloqador tadqiqotlari asosida ham qardosh tillarni bir-biridan ajratish maqsadi bo'lgan [To'g'on 1997, 159-161, 196-197; Xudoyberdiyev 1996a; Поливанов 1923, 6; 1924; 1926, 236-242].

Shuning uchun o'sha davrda Y.D.Polivanov va o'zbekistonlik olimlar, ziyolilar orasida ziddiyat paydo bo'lgan [Avloniy 1929; Xudoyberdiyev 1996a; 1998, 433-443]. O'zbek ziyolilarining birortasi ham Y.D.Polivanov qarashlarini ma'qullamagan. Hatto G'ozii Yunus Y.D.Polivanovni o'zbek tili tovushlarini bir-biridan yaxshi ajrata olmasligini qayd etgan [Yunus G'ozii 1927].

A.N.Samoylovich. O'sha davrda turkiy yozuvlarni o'zgartirish, yangi adabiy tillarni shakllantirish, turkshunoslik qurultoyini chaqirish tashabbuskorlaridan biri A.N.Samoylovich bo'lgan. U ma'lumotlarga ko'ra, 1923-yilning kuzida Boku universiteti va oliy pedagogika institutida ma'ruza o'qish, Ozarbayjon MIQ raisi Og'amali rahbarligida tuzilgan “Yangi turk alifbosi” a'zolari bilan yaqindan tanishish uchun Bokuga boradi [Ашнин 1976, 24-25]. Shu yiliyoq ozarbayjon tilida turkiy tillarga lotin alifbosini joriy qilish maqsadga muvofiq, mazkur masalani muhokama qilish uchun turkshunoslar

qurultoyi chaqirish lozim, degan mazmunda maqola chop ettirdi [Самойлович 1923, 19-20]. Shu mazmundagi maqolani keyinroq rus tilida ham nashr qildirib, Ozarbayjonda olib borilayotgan ishlarga to'xtaldi [Самойлович 1924а, 517-518]. Olim unda turkologiya qurultoyini chaqirish xususida shunday yozadi: «И применение латинского алфавита к турецким языкам, по моему, также должно подвергнуться обсуждению, если не на «международном», то на «межтурском» съезде – «курултае» [Самойлович 1924, 390]. A.N.Samoylovichning fikricha, qurultoyini chaqirishdan maqsad faqat turkiy xalqlar yozuvini o'zgartirish emas. Turkiylar uchun yangi adabiy tillarni yaratish ham muhokama qilinishi lozim. U yozadi: «Мало того, если новый алфавит разрешает вопрос о новом правописании, то он не может одновременно разрешить и весьма трудного и сложного вопроса о новом литературном языке, который требует особого рассмотрения. И я еще раз повторяю: необходимо тюркологический съезд «курултай» [Самойлович 1924, 391]».

A.N.Samoylovich Ozarbayjondagi vaziyat bilan yaxshi tanishib Peterburgga qaytib kelganidan keyin 1924-yil 24-martda, Jonli sharq tillari institutida, turkologiya qurultoyini chaqirish zarurligi, unda ko'riladigan masalalar to'g'risida ma'ruza qilgan [Ашнин 1976, 24-25; Самойлович 1924г, 509]. Radlov to'garagining yig'inlarida esa peterburglik turkshunos va tilshunoslarni turkiy alifbolar haqidagi bahslar, tuzilgan alifbo loyihalari bilan tanishtirib borgan [Ашнин 1976, 24-25; Самойлович 1924а, 509]. Bu davrda turkologiya qurultoyini Peterburgda ham, Moskvada ham o'tkazishga harakatlar bo'lgan. Biroq bu mo'ljallar amalga oshmaganligidan keyin A.N.Samoylovich 1923-yilning sentabr oyida Boku shahrida bo'lgan Ozarbayjon o'lkashunoslik qurultoyida qatnashib, sobiq ittifoq miqyosida turkologiya qurultoyini chaqirish to'g'risida qaror qabul qildirtiradi [Самойлович 1924б, 517-518; Самойлович 1924в, 442-444].

Butunittifoq Sharqshunoslik ilmiy assotsiatsiyasining maxsus komissiyasi

Shundan keyin qurultoyini o'tkazish to'g'risidagi harakatlar boshlangan va bu jarayon M.Pavlovich rahbarligidagi Butunittifoq Sharqshunoslik ilmiy assotsiatsiyasi tomonidan boshqarib turilgan [Павлович 1926].

Assotsiatsiyaning 1924-yil aprel oyi boshlarida bo'lib o'tgan yig'ilishida turkologiya syezdini o'tkazishning tashkiliy masalalarini

ko'rib chiqish, muhokama qilish maqsadida V.A.Gurko-Kryajin rahbarligida maxsus komissiya tashkil etiladi. Komissiyaning birinchi yig'ilishi 1924-yilning 8-aprelida, ikkinchi yig'ilishi 1924-yilning 11-aprelida, uchinchi yig'ilishi 1924-yilning 18-aprelida, to'rtinchi yig'ilishi 1924-yilning 24-aprelida bo'lib o'tadi. Yig'ilishlarda V.A.Gurko-Kryajin, A.N.Samaylovich, Y.D.Polivanov, N.F.Yakovlev, L.I.Jirkov, I.N.Borozdin, N.To'raqulov, Navshirvanov, A.P.Prokopyevlar ishtirok etishgan.

Komissiyaning birinchi yig'ilishida A.N.Samoylovichning turkologiya syezdini chaqirishning tashkiliy masalalari va vazifalariga bag'ishlangan ma'ruzasi eshutiladi. Olim syezdda birinchi navbatda alifbo, ikkinchi masala sifatida adabiy tillar, uchinchi bo'lib terminlar masalasini ko'rib chiqish bo'yicha taklif beradi. Kun tartibiga kiritiladigan masalalar muhokamasiga 14 kun vaqt ketishi, anjumanga SSSR tarkibidagi milliy respublikalardan fan va ta'lim sohasi vakillarini, SSSR tarkibiga kirmagan Buxoro va Xorazm Respublikalaridan vakillarni taklif etish lozimligini gapirib o'tadi. Shuningdek, Turkiyadan vakillarni mehmon sifatida taklif etish, Leningraddan yoqutshunos Pekarskiy, akademiklar Bartold, Oldenburg, Marr, professorlar Vladimirsov, Malov, Samoylovich va Poppe, Moskvadan To'raqulov, Navshirvanov, professorlar Gordlevskiy, Polivanov, Yakovlev, Jirkov, Dimitriyevlarning taklif etilishlarini bildirdi.

A.N.Samoylovichning ma'ruzasi yuzasidan Polivanov, Yakovlev, Jirkov, Oyrot va Yoqut Respublikalari vakillari o'z munosabatlarini bildirashadi.

Keyingi yig'ilishlarda ham turkologiya syezdi tashkil etilishining turli masalalari muhokama etiladi. Ikkinchi yig'ilishda syezdni 1924-yilning avgust oyida chaqirilishi belgilangan.

Butunittifoq Sharqshunoslik ilmiy assotsiatsiyasining SSSR Markaziy Komiteti Prezidiumiga kiritgan xati

Butunittifoq Sharqshunoslik ilmiy assotsiatsiyasi 1925-yilning 17-iyun kuni SSSR Markaziy Komitetining Prezidiumiga quyidagi mazmunda xat kiritadi:

«В виду неоднократных обращений партийных, советских и научных учреждений с предложением созвать всесоюзный тюркологический съезд, Научная Ассоциация Востоковедения СССР просит разрешить таковой в г. Баку с широким представительством от тюркских народов нашего Союза.

Съезд предполагается созвать в декабре с. г. со включением в программу дня следующих вопросов: 1) проблема ре-

формы тюркского алфавита; 2) вопросы научной и практической терминологии; 3) учет научных и просветительных работ среди тюркских народов и др.

Научная Ассоциация по соглашению с заинтересованными учреждениями выдвигает в качестве представителя Организационного Комитета по созыву съезд председателя ЦИК АССР тов. Агамалы-Оглы и замистителем тов. Павловича.

Markaziy Komitet Prezidiumi ushbu masalani o'rganish va tegishli qaror qabul qilishni Xalq Komissarlari sovetiga topshiradi. Xalq Komissarlari soveti 1925-yil avgust oyida syezdni Boku shahrida, dekabr oyida o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi:

«Разрешить Научная Ассоциация Востоковедения при Президиуме ЦИКа СССР созвать в декабре 1925 г. в г. Баку все-союзный тюркологический съезд без отпуска в сверх местном порядке средств на расходы, связанные с созывом съезда».

1925-yilning 15-sentabr kuni Moskva shahrida Ozarbayjon MIQsining raisi Og'amali o'g'li raisligida syezdni o'tkazish bo'yicha dastlabki yig'ilish bo'libdi. Unda anjumanni Butunittifoq Sharqshunoslik ilmiy assotsiatsiyasi bilan Ozarbayjonni o'rganish jamiyati birgalikda 15-dekabrda o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilinadi.

1926-yil 26-fevral – 5 mart kunlari Bokuda Birinchi turkshunoslar qurultoyi bo'lib, unda turkiy xalqlar yozuvi bo'yicha asosiy ma'ruzalarni yuqorida nomlari tilga olingan L.Jirkov [Жирков 1925, 231-238], N.Yakovlev [Яковлев 1924a, 216-227] va Tatariston vakili Olimjon Sharoflar [Галимджан 1926, 242-260] qilishgan. Shuningdek, anjumanda turkiy xalqlar tarixi, adabiy tili, terminlari singari muhim masalalar ham ko'rib chiqilganki, bularning har biri alohida tadqiqotlarni talab qiladi.

Xulosa

Turkologiya qurultoyini chaqirish to'g'risida yana boshqa olimlar, tashkilotlar bilan bog'liq ma'lumotlar bo'lishi tabiiy. Biroq biz o'rgangan adabiyotlarning o'ziyoq ma'lum bir xulosalar chiqarishga asos bo'ladi deb o'ylaymiz.

1. G'arb davlatlarida turkologiya anjumanini o'tkazish fikri paydo bo'lgach, A.N.Samoylovich 1913-yilda Rossiyada ham shunday tadbir uyushtirishga harakat qiladi. Biroq bu davrda qurultoyini o'tkazish imkoni bo'lmaydi.

2. XX asrning 20-yillarida mahalliy ziyolilar tomonidan turkiy adabiy tillarni jonli tillarga yaqinlashtirish, jonli tillarga o'zlashib ketmagan arabcha, forsha hamda ruscha so'zlar o'rniga turkiy kali-

malarni qo'llagan holda turkiy tillarni imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, arab alifbosiga asoslangan turkiy tillar alifbolarini isloh qilish yoki boshqa alifbo bilan almashtirish to'g'risidagi munozaralar qizg'in tus oladi.

A.N.Samoylovich, Y.D.Polivanov va boshqa olimlar 1923-yilda ushbu muammolarni hal qilish uchun turkologiya qurultoyini chaqirish zarurligini kun tartibiga qo'yadilar.

3. Rus turkologlari tomonidan ilgari surilayotgan turkshunoslar qurultoyini chaqirishdan asosiy maqsad turkiy xalqlar yozuvlarini rus alifbosi bilan almashtirish, qardosh tillarni bir-biridan ajratgan holda kelgusida bir umumiy tilga, rus tiliga, birlashib ketishini nazarda tutuvchi yangi adabiy tillarni shakllantirish ko'zda tutilgan.

4. Turkiy xalqlar tillari va yozuvlarini tubdan o'zgartirish haqidagi qarashlarni izchillik va tizimli ravishda amalga oshirish uchun A.N.Samoylovich, Y.D.Polivanov, N.Yakovlev, L.Jirkov kabi olimlar faollik ko'rsatgan. Pavlovich boshchiligidagi Sharqshunoslik Assotsiatsiyasi boshqarib turgan.

Adabiyotlar

- Arnold J. Toynbee. 1929. "The Adoption of the Latin in Turkey and in the Turkish States members of the U.S.S.R". 1918-28. *Surey of international Affairs*. 1928. London.
- Ашнин, Ф. 1976. "Александр Николаевич Самойлович". В кн. *Тюркологический сборник 1974*, 24-25. Москва.
- Avloniy, A. 1929. "Til-imlo sohasida". *Maorif va o'qituvchi* 6. Toshkent.
- Bilal N. Şimşir. 1991. *Azerbaycan'da Türk Alfabesi tarihçe*. Ankara.
- Bilal N. Şimşir. 1992. *Türk Yazı Devrimi*. Ankara.
- "Бакинский рабочий". 1923. Баку, 26 июль.
- Bocon, E.E. 1966. *Central Asians Under Russian Rule*. New York.
- Bogdanova, M. 1930. "Lotun asosida tuzilgan o'zbek loyihalarining tarixiga bir qarash". *Alanga* 2. Toshkent.
- Broydo, G. 1925. *Milliyat masalasi*. Maskav.
- Базиянц. 1976. "В.А.Гордлевский и реформа письменности тюркских языков". *Советская тюркология* 5: 75-77.
- Баскаков, Н.А. 1973. "А.Н.Самойлович в письмах к В.А.Гордлевскому". *СТ Баку* 5: 88.
- Баттал, Габделбари. 1996. *Казан төркийләри*. Казан.
- Бороздин. И. 1927. "М.П.Павлович и Всесоюзная Научная Ассоциация Востоковедение". *Новый Восток* 18: XXXVII-XLIV. Москва.
- В.С. 1926. "Первый Всесоюзный тюркологический съезд". *Новый Восток* 12: 334-341. Москва.
- Вәлиев, Рәмзи. 1996. *Фажиги*. Казан.
- Вырдин, А. 1994. "Фитрат, Поливанов, Сталин и другие". *Звезда Восто-*

- ка 5-6: 150-172. Ташкент.
- Henze, Paul B. 1956. "Politics and Alphabets in inner Asia". *Royal Central Asian Journal* XLIII: 29-51.
- Henze, Paul B. 1957. "Alphabet Changes in Soviet Central Asian and Communist China". *Royal Central Asian Journal* XLIV: 124-136.
- Hudayberdiyev, C. 1997. "Fitrat va lotin yozuvi". *Türk lehçeleri ve adabiyati dergisi* 16: 56-59. Ankara.
- Hudayberdiyev, C. 1998. Özbekçede ses uyumunun yok edilşi. *Türk dünyasi dil ve adabiyat dergisi*. Ankara, № 5. 433-443 s.
- Галимджан, Шариф. 1926. "Арабская и латинская система шрифтов и вопрос применения для тюрко-татарских народностей". В.кн.: *Первый Всесоюзный тюркологический съезд. 26 февраля - 5 марта 1926 г., 242-260. (Стенографический отчет)*. Баку.
- Донидзе, И.И. 1972. "Шорский алфавит". В кн.: *Вопросы совершенствования алфавитов тюркских языков СССР*. 20-207. Москва.
- Жирков, Л. 1925. К реформе алфавитов восточных народностей. *Новый Восток* 10-11: 223-235. Москва.
- Жирков, Л. 1926. "Основы построения алфавита восточных народностей". В кн.: *Первый Всесоюзный тюркологический съезд. 26 февраля - 5 марта 1926 г., 231-238. [Стенографический отчет]*. Баку.
- Jeni jol, 1922a. Вақ, 28.09. № 2.
- Jeni jol, 1922b. Вақ, 7.10. № 3.
- Jeni jol. 1922. Вақ, 21.09. № 1.
- Кәримулин, Әбрар. 1997 а. *Язымыш, язымыш...* Казан.
- Кәримулин, Әбрар. 1997. *Тел – милләтнең сакчысы*. Казан.
- Кенисбаев, С.К., Мусабаев, Г.Г., Неталиева, Х. 1972. Об алфавите казахского языка. В. кн.: *Вопросы совершенствования алфавитов тюркских языков СССР*. Москва, стр. 66-74.
- Кононов, А.Н. 1968. *Тюркская филология в СССР 1917-1967*. Москва.
- Курбатов, Х. 1972. "Алфавит татарского языка". В кн.: *Вопросы совершенствования алфавитов тюркских языков СССР*, 126-139. Москва.
- Castagne, J. 1926. Le Congres de Turkologie de Bokou, en Mars 1926. *Revue de Vonde Musulman*, LXIII, 1er trimestre. Paris.
- Castagne, J. 1927. Latinisation de l'Alphabet Turk dans les Republiques Turko-Tatares de l' U.R.S.S. *Revue des Etudes Islamiques*. 1927. Cahier III, Paris.
- Леонтьев, А.А., Ройзензон, Л.И., Хаятин, А.Д. 1968. "Жизнь и деятельность Е.Д.Поливанова". В кн.: Е.Д.Поливанова. *Статьи по общему языкознанию*, 7-30. Москва.
- Inom Raximov 1926. "Lotin alifbosi uchun kurash". *Maorif va o'qituvchi* 3. Toshkent.
- Musabay, V. 1959. "Idil-Ural Türkleri dil ve yazilarinin Sovvetleştirilmesi ve Ruslaştırılması". *Dergi* 15.
- "Maorif va madaniyat xodimlarining ikkinchi o'lka qurultoyi. 1922.

- Harf-imlo masalasi. *Qizil bayroq*, 26-aprel. Toshkent.
- Мусаев, К.М. 1965. *Алфавиты языков народов СССР*. Москва.
- “Til va imlo qurultoyi”. 1921. *Qizil bayroq*, 1921-yil 27-yanvar. Toshkent.
- To'g'on, Ahmad Zakiy Validiy. 1997. *Bo'linganni bo'ri yer*. Toshkent.
- Togan, Zeki Velidi. 1999. *Hatiralar*. Ankara.
